

**NODAVLAT TA'LIM – INDIVIDUAL ERKINLIK VA IJTIMOYIY ZARURIYATNING QONUNIYATLI MAHSULI SIFATIDA****Eshonkulova N.A. -***Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti,  
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

Insoniyat sivilizatsiyasining hozirgi bosqichida ta'lim bilim berish maskani bo'lishi bilan birgalikda jamiyatning intellektual hamda ma'naviy qiyofasini belgilovchi strategik institutga aylandi. Global integratsiya va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimining moslanuvchanligi, ko'p qirraliligi birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida ta'lim sohasida davlat monopoliyasidan voz kechish va nodavlat ta'lim sektorini qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish etib belgilandi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida ta'kidlanganidek, "Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi"[1]. Ta'kidlash lozimki, nodavlat ta'lim tizimini rivojlantirish faqat iqtisodiy yoki tashkiliy chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, uning fundamental falsafiy-tarixiy asoslarini, vujudga kelish qonuniyatlarini hamda mohiyatini anglashni taqozo etadi.

Bugungi kunda nodavlat ta'lim ko'pincha tijorat loyihasi sifatida talqin qilinmoqda. Vaholanki, uning ildizlari insoniyat tarixidagi eng qadimgi ta'lim an'alariga — erkin ilmiy maktablar, xususiy akademiya hamda madrasalarga borib taqaladi. Nodavlat ta'limning o'ziga xos tabiati insonning erkin kamolotga intilishi va jamiyatning tabaqalashgan intellektual ehtiyojlari bilan izohlanadi. Nodavlat ta'lim shaxsga o'z qobiliyati, qiziqishi va sur'atiga mos ravishda bilim olish imkonini beradi. Shu jihatdan ta'lim nodavlat sektorda – shaxsiy tanlov va o'z-o'zini anglash vositasiga aylanadi.

Zamonaviy mehnat bozori va ijtimoiy tuzilma bir xil emas. Hozirda IT, biotexnologiya, kreativ industriya va hokazo turli sohalar o'ziga xos, tor doiradagi hamda yuqori sifatli mutaxassislarni talab qiladi. Nodavlat sektor ushbu dolzarb ehtiyojlarga tezroq moslashadi, shu bilan birga davlat tizimi qamrab ololmagan intellektual bo'shliqlarni to'ldiradi. Bu o'rinda nodavlat ta'lim individual erkinlik va ijtimoiy zaruriyatning qonuniyatli mahsuli sifatida o'rganilishi, nodavlat ta'lim tizimi qaysi falsafiy va tarixiy omillar ta'sirida shakllanganligi hamda uning bugungi kundagi mazmuni qanday tamoyillarga tayanishini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nodavlat ta'lim fenomenini falsafiy-tarixiy jihatdan o'rganishda bir necha fundamental yo'nalishlar mavjud bo'lib, ular tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Avvalo, antik davr va o'rta asrlar ta'lim modellari Platon, Aristotel hamda Abu Nasr Forobiy kabi bir qancha mutaffakkirlar asarlarida shaxsning erkin kamoloti va davlatdan mustaqil intellektual jamoalar kontekstida yoritilgan. Ta'limda erkinlik va davlat faoliyatining chegaralari masalasi V.Fon Gumboldt va J.S.Mill kabi liberalizm vakillari tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ular ta'limning shaxsiy individuallikni rivojlantirishdagi o'rnini asoslab berishgan.

Zamonaviy pedagogik va ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarda nodavlat ta'lim "demokratiya va ta'lim" (J.Dyui) , "ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar" (M.Zokirov) hamda ta'lim menejmenti (R.Djuraev, S.Turg'unov) nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, Jahon banki hisobotlari kabi zamonaviy manbalarda nodavlat sektor ta'limda tanlov imkoniyati va samaradorlikni oshiruvchi iqtisodiy-ijtimoiy determinant sifatida ko'rildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi nodavlat ta'lim institutini fenomen sifatida o'rganish, uning tarixiy tadrijiy yo'lini antik davrdan hozirgi kungacha falsafiy rakursda ko'rib chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: Nodavlat ta'limning shakllanishiga turtki bo'lgan ijtimoiy-falsafiy omillarni tasniflash; Tarixiy tajribada nodavlat ta'limning o'ziga xos modellarini, masalan, Sharq renessansi madrasalari va G'arb klassik universitetlarini qiyoslash; "Nodavlat ta'lim" tushunchasining zamonaviy pedagogik va falsafiy mohiyatini ochib berishdan iborat.

Maqolada tarixiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy-falsafiy yondashuv va tizimli strukturaviy tahlil kabi kompleks metodlardan foydalanilgan holda ta'lim tizimining evolyusiyasi ijtimoiy ong shakllari va davlat boshqaruv modellarining o'zgarishi bilan hamohanglikda o'rganildi.

- Tarixiy-mantiqiy tahlil asosida nodavlat ta'lim tizimining genezisi sivilizatsiyaning ilk bosqichlaridan (xususan, Konfutsiyning xususiy maktablari) to hozirgi kundagi raqamli transformatsiya davrigacha bo'lgan tadrijiy yo'li o'rganildi.

- Shuningdek, Sharq Renessansi davridagi mustaqil madrasalar tizimi bilan G'arb klassik universitetlarining "akademik erkinlik" modellarini qiyoslash orqali nodavlat ta'limning universal va o'ziga xos determinantlari aniqlandi.

- Tizimli-strukturaviy tahlil yordamida ta'lim tizimi ijtimoiy ong shakllari va davlat boshqaruv modellarining o'zgarishi bilan hamohanglikda, yaxlit falsafiy-ijtimoiy tizim sifatida tadqiq etildi.

- Nodavlat ta'limning "tijorat loyihasi" va "ijtimoiy-madaniy fenomen" sifatidagi ziddiyatli tabiati hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi simbiotik aloqalar dialektik yondashuv bilan tahlil qilindi.

Nodavlat ta'lim tizimining genezisi insoniyat sivilizatsiyasining ilk bosqichlariga, ya'ni bilim berish jarayoni hali davlatning qat'iy siyosiy institutiga aylanmagan davrlarga borib taqaladi.

G'arb sivilizatsiyasida nodavlat ta'limning ilk professional kurtaklarini qadimgi Yunonistonda sofistlar faoliyati misolida kuzatishimiz mumkin.

Sofistlar (yun. sophistes – mohir, dono) – 1) Yunonistonda bilimdon, aqlli kishilar, maxsus hunar egalari; 2) mil. avv. V asrning ikkinchi yarmi – IV asrning birinchi yarmida Yunonistonda donolik va chiroyli so'zlashuvga o'rgatuvchi o'qituvchilar, faylasuflar. Sofistlar birinchi bo'lib ta'limni xususiy tadbirkorlik shakliga aylantirganlar. Ular ma'lum miqdordagi haq olish evaziga kishilarga munozara olib borish san'atini, raqibini mulohazalaridagi zaif tomonlarini topib, ularga zarba berish, o'z fikrini boshqaga o'tkazish, munozaralarda yengib chiqish usullarini o'rgatishgan. Protogor, Gorgiy, Gippiy, Prodik va boshqalar mashhur sofistlardir. Sofistlar alohida bir maktabni tashkil etishmagan. Lekin ularning etika, siyosat, bilish nazariyasi sohasiga qiziqishlarida umumiy tomonlari bor [2; 204]. Ular ta'limga nisbatan pragmatik yondashuvni joriy etib, bilimni hayotiy muvaffaqiyat omiliga aylantirdilar va uni pullik asosda tashkil etish orqali ta'limning davlat qolipidan tashqaridagi muqobil shakllarini yaratdilar.

Antik davr falsafasida ta'lim va tarbiya – bu shaxsning erkin kamoloti va haqiqatni izlash jarayoni sifatida ko'rilgan. Xususan, Platonning "Akademiyasi" va Aristotelning "Litseyi" mohiyatan davlatdan mustaqil, xususiy tashabbus asosidagi intellektual jamoalar edi. Ushbu maktablarda ta'lim standartlari ustoz va shogird o'rtasidagi jonli muloqot hamda erkin bahs-munozara, dialektika asosida shakllangan.

Sharq sivilizatsiyasida nodavlat ta'limning ilk ko'rinishlaridan biri Qadimgi Xitoyda mutafakkir Konfutsiy (mil. av. 551-479 yy.) faoliyati bilan bog'liqdir. Faqatgina oqsuyak-amaldorlar farzandlarininggina ta'lim olish imkoniyati bo'lgan davrda, Konfutsiy "kim bo'lmasin hamma bilim olishi kerak" degan tamoyilni ilgari surdi. U kishilarning jamiyatda tutgan o'rnidan qat'iy nazar, barchasiga birdek ta'lim beruvchi ilk xususiy maktabni tashkil etdi. Konfutsiyning ushbu tashabbusi amaldorlarning maorifga nisbatan tanho egalik (monopol) huquqini "pachalab tashladi". Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, bu jarayon ta'limni "nasliy imtiyoz"dan "loyiqlik va qobiliyat" (meritokratiya) tamoyiliga o'tkazishning ilk tarixiy namunasi bo'lib xizmat qildi [3;10-13]. Konfutsiyning xususiy maktabi, yuqorida keltirilgan Platonning "Akademiyasi" yoki Sharq madrasalari kabi, nodavlat ta'limning tarixiy vorislik zanjiridagi muhim bo'g'indir. U ta'limda erkinlik va tanlov imkoniyatini yaratish orqali ta'limning "umuminsoniy qadriyat"ga aylanishiga, bilim olish huquqining demokratlashishiga hamda inson kapitalini erkin rivojlantirishning falsafiy asosi shakllanishiga xizmat qildi. Konfutsiy faoliyati nodavlat ta'limning nafaqat iqtisodiy, balki etik-axloqiy va ijtimoiy-falsafiy zaruriyat ekanini isbotlovchi eng qadimgi omildir. Uning tajribasi bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim plyuralizmi islohotlari uchun fundamental tarixiy asoslardan biri deyish mumkin.

G'arbiy Yevropada XII - XIII asrlarda hunarmandchilik va savdning rivojlanishi shaharlarning o'sishiga va shahar madaniyatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Shaharning asosiy aholisini tashkil qiluvchi hunarmand va savdogarlar o'z bolalariga amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim berishni istar edilar. Ular o'sha davrlarda cherkov maktablaridan qanoatlanmadilar. [4;296]. Bu ta'lim tarixida xususiy korporatsiyalarning ta'lim sifatini belgilashdagi ilk muvaffaqiyatli qadamlaridan biri bo'ldi. Bu o'rinda simbiotik evolyusiyani kuzatishimiz mumkin, ya'ni dastlab korporativ (xususiy) xarakterga ega bo'lgan bu maktablar keyinchalik magistrat (shahar boshqarmasi) tasarrufiga o'tdi. Bu hodisa nodavlat ta'lim tashabbuslarining jamiyat tomonidan tan olinishi va ommaviy ahamiyat kasb etishining tarixiy namunasi bo'ldi.

Mazkur maktablar bilan bir qatorda xususiy maktablar ochila boshladi. Xususiy maktablarda o'qish ona tilida olib borilar edi va o'qish uchun pul to'lanar edi [4;296]. Maktablarda ta'limning pullik asosda tashkil etilishi ta'lim sifatiga nisbatan ijtimoiy talabni shakllantirdi va uni professional korporatsiyalar ehtiyojiga moslashtirdi.

G'arbda XII-XIII asrlarda birinchi universitetlarning (Bolonya, Parij, Oksford) paydo bo'lishi [4;298] nodavlat sektorning taraqqiyotidagi yana bir ko'rinishi edi. Ular dastlab o'qituvchi va talabalarining o'z-o'zini boshqaruvchi korporatsiyalari (universitas) sifatida yuzaga kelib, qirol yoki cherkov aralashuvidan himoyalangan akademik erkinlik huquqiga ega bo'lishgan.

O'rta asrlar Sharq renessansi davrida nodavlat ta'limning o'ziga xos modeli — madrasalar va xususiy xonadonlardagi ta'lim tizimi rivojlanishi islom tamadduni bilan bog'liq bo'ldi. Islomiy nuqtayi nazardan "Iymon yalong'ochdir, uning libosi taqvo, ziynati hayo, mevasi esa ilmdir", "Olim Allohning yer yuzidagi ishonchli kishisidir [5; 20-21]. Islom tamaddunida ilm olish "farz" darajasiga ko'tarilishi natijasida boy-badavlat kishilar va olimlar tomonidan tashkil etilgan vaqf mulklari hisobiga ko'plab mustaqil ta'lim maskanlari faoliyat yuritgan. Bu davr mutafakkirlari, xususan Abu Nasr Forobiy ta'lim va tarbiyaning maqsadini fozil jamiyatni shakllantirishda ko'rganlar, bu esa o'z navbatida erkin intellektual izlanishni talab etgan [6]. Masalan, Al-Xorazmiy, Ibn Sino va Beruniy kabi mutafakkirlar ko'pincha saroy maktablaridan tashqari, erkin ilmiy maktablarda tahsil olishgan va dars berishgan. Bu davrda ta'limning mohiyati "ilmi tolib" va "mudarris" o'rtasidagi ijtimoiy shartnomaga asoslangan edi.

O'rta asrlar Sharqida (IX–XV asrlar) nodavlat ta'lim tizimining o'ziga xos modeli - madrasalar shakllandi. Madrasalar asosan hukmdorlar, boy savdogarlar yoki ulamolar tomonidan ajratilgan vaqf mulklari (do'konlar, yerlar, karvonsaroylar) hisobiga faoliyat yuritgan. Bu tizim ta'lim muassasasining davlat xazinasiga bog'lanib qolmasligini va siyosiy o'zgarishlardan qat'iy nazar barqaror ishlashini ta'minlagan. Madrasada o'qitiladigan fanlar majmuasi, darsliklar va mudarrislar tarkibi ko'pincha vaqf shartnomasiga ko'ra yoki muassasaning ichki an'analari asosida belgilangan. Bu esa ta'limning mazmunida fikrlar plyuralizmi va turli kalom (falsafiy-diniy) maktablarining erkin mavjudligiga zamin yaratgan. Madrasalarda ta'lim bepul bo'lgan va talabalar uchun yotoqxon hamda nafaqa ajratilgan bo'lib, jamiyatning quyi tabaqasidan chiqqan iqtidorli yoshlar o'z bilimi orqali eng yuqori ilmiy va ijtimoiy martabalarga ko'tarila olganlar.

Sharq Renaissance davri madrasalari nodavlat ta'limning o'z-o'zini boshqarish va iqtisodiy mustaqillik borasidagi eng mukammal tarixiy modellaridan biridir. Vaqf huquqi asosida shakllangan ushbu institutlar ta'limning siyosiy hokimiyatdan xoli bo'lishini, ilmiy tadqiqotlarning uzluksizligini va ijtimoiy adolat tamoyillarini o'zida mujassam etgan. Madrasalar tajribasi shuni isbotlaydiki, nodavlat sektor ta'limda nafaqat tijorat, balki yuksak ma'rifiy-xayriya funksiyasini ham muvaffaqiyatli bajara oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, nodavlat ta'lim insoniyat tarixining barcha bosqichlarida davlat ta'limi bilan parallel va uni to'ldiruvchi shaklda rivojlanib kelgan tabiiy hodisa – degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Nodavlat ta'lim institutini fenomen sifatida o'rganish, uning tarixiy tadrijiy yo'lini falsafiy rakursda tahlil qilish asosida, nodavlat ta'limning mavjudligi hamda rivojlanishini belgilovchi asosiy falsafiy determinantlar sifatida shaxs individualligi, tanlov erkinligi va sog'lom raqobat tamoyillari namoyon bo'ladi.

*Shaxs individualligi* determinanti – har bir insonning o‘ziga xos qobiliyat va ehtiyojga ega ekanligi bilan belgilanadi. Nodavlat ta’lim individuallashtirish yondashuv orqali har bir o‘quvchining subektiv ehtiyojlariga moslashadi. Bu borada Jon Dyui ta’limni jamiyatning demokratik poydevori deb bilar ekan, unda individning tajribasi va qiziqishlari markaziy o‘rin tutishi lozimligini uqtirgan [7]. Ushbu ta’lim sektori insonni “ommaning bir qismi” emas, balki individual shaxs sifatida qabul qiladi hamda ta’lim oluvchining qiziqishlariga ko‘ra ta’lim traektoriyasini qurish imkoniyatini beradi.

*Ta’limda erkinlik* — bu tanlov imkoniyatidir. Falsafiy jihatdan bu determinant shaxsning o‘z dunyoqarashini majburiy qoliplarsiz shakllantirish huquqini himoya qiladi. Gumboldtning ta’kidlashicha, haqiqiy kamolot faqat erkinlik va sharoitlarning xilma-xilligi mavjud bo‘lgandagina sodir bo‘ladi [8; 72-75].

Shu jihatdan nodavlat ta’lim tizimi – Akademik erkinlikni ta’minlaydi; O‘quv dasturlarini jamiyatning real ehtiyojidan kelib chiqib erkin tanlash imkonini beradi; Davlatning mafkuraviy bosimidan holi bo‘lgan “neytral intellektual maydon” yaratadi.

*Raqobat* — sifatning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Nodavlat sektor eng yaxshi o‘qituvchi va metodikalarni jalb qilish orqali bozor talablariga javob berishi hamda innovatsion yondoshuvga moyil bo‘lib, AI, masofaviy ta’lim, kreativ metodlar kabi yangi texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda ilg‘orligi bilan ajralib turadi. Jahon banki hisobotlarida ta’kidlanganidek, ta’limda xususiy sektorning ishtiroki tanlov imkoniyatini kengaytiradi va umumiy samaradorlikni oshiradi [9;18-24]. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu omil eng yaxshi uslub va g‘oyalarning yashab qolishi tamoyiliga tayanadi. Bu borada M.Akmalova, M.Yoqubjonovalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot davomida nodavlat ta’lim tashkilotlarining davlat ta’lim muassasalariga nisbatan raqobatbardoshligini oshirishi va ta’limning diversifikatsiyasini ta’minlashdagi roli ta’kidlandi. Ular ko‘proq tanlov imkoniyatlarini taqdim etish orqali talabalarni o‘zlariga jalb qilishda katta rol o‘ynaydi. Raqobat, shuningdek, davlat ta’lim muassasalaridagi sifatni oshirishga ham undaydi, bu esa narxlar va xizmatlar sifatiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi [10].

Nodavlat ta’limni individual erkinlik va ijtimoiy zaruriyatning qonuniyatli mahsuli sifatida tahlil qilish quyidagi fundamental xulosalarga kelish imkonini beradi:

Nodavlat ta’lim insoniyat tarixining barcha bosqichlarida davlat ta’limi bilan parallel va uni to‘ldiruvchi shaklda rivojlanib kelgan tabiiy hodisadir. Antik davr akademiyalaridan tortib Sharq madrasalarigacha bo‘lgan tajriba shuni ko‘rsatadiki, ta’limning erkinligi uning sifat darajasini belgilovchi asosiy omil.

Nodavlat sektor ta’limning unifikatsiyalashuviga qarshi turuvchi mexanizm bo‘lib, u shaxs individualligi, tanlov erkinligi va sog‘lom raqobat tamoyillariga tayanadi. Bu esa jamiyatda intellektual xilma-xillikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda nodavlat ta’limni faqat tijorat loyihasi deb hisoblash xatodir. Uning kelajagi — iqtisodiy erkinlik, ijtimoiy mas’uliyat va milliy-ma’naviy qadriyatlarining o‘zaro sinteziga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda nodavlat ta’lim sektorining rivojlanishi tashkiliy islohot bo‘lib, jamiyatning intellektual salohiyatini demonopolizatsiya qilish va inson kapitalini erkin rivojlantirishga qaratilgan chuqur falsafiy asoslarga tayanadigan tarixiy jarayondir.

#### ADABIYOTLAR:

1. Ўzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: “Ўzbekiston” nashriyoti, 2023. – 128b.
2. Nazarov Qiyom. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. – T.: «Ўzbekiston Faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2023.– 856 b.
3. Konfutsiy. Muhokama va bayon (Hikmat va mohiyat) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 180 b.
4. K.Hashimov, S.Nishonova “Pedagogika tarixi”. - Toshkent-2005y. B. 338, 296-298b.
5. G‘azzoliy, Imom Abu Homid. “Ihyou ulumid-din” (Ilm kitobi). Birinchi kitob. – Toshkent: Movarounnahr, 2003. – B. 20-21.
6. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 320 b.

7. [Dewey, John](#). Democracy and education: an introduction to the philosophy of education, Pages 384 New York: Free Press, 1997
8. Гумбольдт В. О пределах государственной деятельности – Москва.: Социум, 2009. – 285 стр.
9. World Bank Report. Private Sector in Education: Promoting Choice and Efficiency. – Washington DC, 2022. – P. 18-24.
10. Akmalova M., Yoqubjonova M. Nodavlat taʼlim tashkilotlarining taʼlim tizimidagi oʻrni va roli – Международный журнал научных исследователей. – 2025. – №2. – С. 312-7
11. Турдикулов О.Т., Муминов А.Г. Развитие филиалов зарубежных вузов в Узбекистане при Президенте Ш.М. Мирзиёеве // Вестник Томского государственного университета. История. 2025. № 95. С. 130–139. doi: 10.17223/19988613/95/17

#### REZYUME:

Ushbu maqolada nodavlat taʼlim institutining vujudga kelishi va rivojlanishining fundamental falsafiy-tarixiy determinantlari kompleks tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** nodavlat taʼlim, falsafiy determinantlar, genezis, taʼlim plyuralizmi, akademik erkinlik, Sharq renessansi.

#### РЕЗЮМЕ:

В данной статье представлен комплексный анализ фундаментальных философско-исторических детерминантов возникновения и развития института негосударственного образования.

**Ключевые слова:** негосударственное образование, философские детерминанты, генезис, образовательный плюрализм, академическая свобода, Восточный Ренессанс.

#### RESUME:

This article provides a comprehensive analysis of the fundamental philosophical and historical determinants underlying the emergence and evolution of the institution of non-state education.

**Keywords:** non-state education, philosophical determinants, genesis, educational pluralism, academic freedom, Eastern Renaissance.